

## TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: IMKONIYATLAR VA SIFAT KO‘RSATKICHLARI

Raxmonova Sarvinozoy Xasanboy qizi  
Andijon Davlat Pedagogika Insitituti Magistratura  
bo‘limi “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida  
Pedagogika yo‘nalishi 1- bosqich Magistranti  
s93539029@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19450981>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yosh avlod ta’lim-tarbiyasida oila, maktab va jamiyat hamkorligining ahamiyati Abdulla Avloniy qarashlari asosida yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish, o‘quvchilarda media-savodxonlik, vaqt menejmenti va axborot immunitetini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik tamoyilidan foydalanish hamda zamonaviy ta’lim platformalarining imkoniyatlari yoshlarning aqliy rivojlanishiga xizmat qilishi ta’kidlangan.

**Аннотация** В данной статье рассматривается значение сотрудничества семьи, школы и общества в воспитании и образовании молодого поколения на основе педагогических идей Абдулла Авлони. Также анализируется роль современных цифровых технологий и информационно-коммуникационных средств в образовательном процессе, формирование медиаграмотности, навыков управления временем и информационного иммунитета у учащихся. Подчеркивается важность принципа наглядности в обучении и возможностей современных образовательных платформ для развития интеллектуального потенциала молодежи.

**Annotation.** This article discusses the importance of cooperation between family, school, and society in educating and raising the younger generation based on the pedagogical ideas of Abdulla Avloniy. It also analyzes the role of modern digital technologies and information and communication tools in the educational process, as well as the development of media literacy, time management skills, and information immunity among students. The study emphasizes the importance of the visual teaching principle and the potential of modern educational platforms in enhancing students’ intellectual development.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim-tarbiya, Abdulla Avloniy, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media-savodxonlik, ko‘rgazmalilik tamoyili, axborot immuniteti, zamonaviy ta’lim platformalari, yoshlar tarbiyasi, oila va maktab hamkorligi.

**Ключевые слова:** Образование и воспитание, Абдулла Авлоний, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, медиаграмотность, принцип наглядности, информационный иммунитет, современные образовательные платформы, воспитание молодежи, сотрудничество семьи и школы.

**Keywords:** Education and upbringing, Abdulla Avloniy, digital technologies, information and communication technologies, media literacy, visual teaching principle, information immunity, modern educational platforms, youth education, family and school cooperation.

Yosh avlod ta’limi va tarbiyasi haqida mashhur o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy quyidagicha fikr bildiradi:

*“Tarbiyani kim qilur? Qanday qilinur? – degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, Muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”, deb javob beradi.*

Demak, har qanday ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi tegishli fandan o’quvchilarda bilim, ko’nikma va malakalarni hosil qilish, ularni xotirada yaxshi eslab qolishini ta’minlash va o’quvchilarni ulardan hayotda to’g’ri foydalana olishiga o’rgatishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan didaktikaning asosiy ta’ymoyillaridan biri – ko’rgazmalilik tamoyilidan unumli foydalanishdir.

Hozirgi kunda o’quvchilarning aqliy taraqqiyotini yuqori darajada rivojlantiruvchi ta’limni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz merosini bugungi yosh avlodga yetkazib berishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya, raqamli texnologiyalaridan oqilona foydalanish, ya’ni internet tizimida ta’lim va bilim beradiagan veb-saytlar yaratilgan. Yagona ta’lim va bilim beradigan ta’lim tarmog’ini yaratish kabi masalalarning ko’tarilganligi ham davlatimiz tomonidan berilayotgan e’tiborning yaqqol namunasidir.

Raqamli texnologiyalar — bu ta’lim olamining yangi qiyofasi bo’lib, u kompyuter savodxonligidan tortib suniy intellektgacha bo’lgan barcha imkoniyatlarni o’zida birlashtiradi. Ular dars jarayonini jonlantiradi, ma’lumot almashishni tezlashtiradi va ta’limni chegarasiz qiladi. Kechagina bizning bilim dunyomiz parta va darsliklar bilan o’ralgan edi. Bugun esa internet orqali global bilimlar xazinasi, xalqaro ma’ruzalar va eng sara o’quv manbalari kaftimizda namoyon bo’lmoqda.

So’nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborotlarning salbiy va ijobiy ta’siri haqida ota-onalar va yurtimiz aholisining fikrlari turli bahs- munozaralarga sabab bo’lmoqda. Bu borada bir necha yo’nalishga qaratishimiz lozim.

Birinchi navbatda kompyuter savodxonligi ya’ni fundamental bilimni hamma bilishi lozim.

Ikkinchidan, axborotning ijobiy tomoni hayotimizning har jabhasida, ta’limda ham zarur ma’lumotlarni tez va oson olish va uni qo’llash mumkin. Ammo ota-onalar, maktab va jamoatchilik sa’y- harakatlari orqali kerak va nokerak axborotlarni yoshlarimiz ajrata olishlarini o’rgatishimiz zarur.

1. **Media-savodxonlikni oshirish:** O’quvchilarga internetdagi ma’lumotlarning qay biri ishonchli, qay biri yolg’on (feyk) ekanini farqlashni o’rgatish.

2. **Vaqt menejmenti:** Ijtimoiy tarmoqlarda o’tkaziladigan vaqtni nazorat qilish.

3. **Milliy kontentni targ’ib qilish:** Yoshlarga o’zbek tilidagi ta’limiy platformalar imkoniyatlarini kengroq tushuntirish.

4. **Uchlik ittifoqi:** A.Avloniy aytganidek, oila, maktab va hukumat (jamiyat) o’rtasidagi hamkorlikni "elektron kundalik" va ijtimoiy guruhlar orqali mustahkamlash.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim platformalari o’quv jarayonining tarkibiy qismiga aylandi. Mazkur tizimlar yordamida bilim berish faoliyatini masofaviy, kombinatsiyalashgan yoki gibrud usullarda yo’lga qo’yish imkoniyati mavjud. Ushbu raqamli muhitda pedagoglar o’z yo’nalishlari bo’yicha o’quv resurslarini shakllantiradi, nazorat ishlarini belgilaydi va o’zlashtirish ko’rsatkichlarini tahlil qiladi. O’quvchilar esa, o’z navbatida, bilimni mustaqil egallash, o’zaro muloqot qilish hamda tushunarsiz holatlar bo’yicha qayta aloqaga chiqish imkoniga ega bo’ladilar.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Abdulla Avloniy o’z davrida ilgari surgan "uy tarbiyasi" va "maktab tarbiyasi" tushunchalari bugun yangicha mazmun kasb etmoqda. Zamonaviy dunyoda tarbiya faqatgina oila va maktab devorlari bilan cheklanib qolmay, raqamli makon — internet bilan ham chambarchas bog’liqdir.

Aqliy taraqqiyotni jadallashtirishda ko’rgazmalilik tamoyili va AKT imkoniyatlaridan foydalanish o’quvchining dunyoqarashini kengaytirsa-da, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan himoyalalanish uchun yoshlarda "axborot immuniteti"ni shakllantirish davr talabidir.

Zero, komil insonni tarbiyalash — bu unga nafaqat bilim berish, balki olingan bilimlarni ezgulik yo‘lida, mas’uliyat bilan qo‘llashni o‘rgatish demakdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” O'zbekiston 2022.
2. . “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnal. 2017.№1.
3. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innavatsion texnologiyalar. -T.,2008.
4. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)